



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING  
BUYRUG'I

2023 - yil « 23 » mart 65 -son

Toshkent shahri

**2023/2024 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga hujjat topshirishda talab etiladigan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qaroriga muvofiq buyuraman:

1. Ma'lumot uchun qabul qilinsinki, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga tanlovlarda milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega shaxslar ishtirok etishi tartibi joriy etiladi. Bunda, filologiya yo'nalishlari bo'yicha kamida C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat, nofilologik yo'nalishlari bo'yicha esa B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

2. Oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga hujjat topshirishda talab etiladigan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ta'kidlab o'tilsinki, mazkur ilova Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tatbiq qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 395-sonli qarorining 1-bandi "g" kichik bandiga muvofiq tasdiqlangan.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 30-iyundagi "2022/2023 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga hujjat topshirishda talab etiladigan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 220-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari K.Karimov zimmasiga yuklansin.

Vazir



I. Abduraxmonov

ASLIGA TO'G'RI

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining  
2023-yil "23" 13 dagi  
65 -son buyrug'iga ilova

**Oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga hujjat topshirishda talab etiladigan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi sertifikatlar (ularning darajalari)  
RO'YXATI**

T/R	Sertifikat nomi	Muvofiqlik darajasi		
		Common European Framework of References (CEFR)		
		B2	C1	C2
1	Milliy Sertifikat	B2	C1	C2
<b>Ingliz tili bo'yicha</b>				
2	International English Language Testing System (IELTS)	5.5 — 6.5	7.0 — 8.0	8.5 — 9.0
3	Test of English as a Foreign Language (TOEFL iBT)	72 — 94	95 — 113	114 — 120
4	Test of English for International Communication (TOEIC)*	1095 — 1300	1305 — 1309	
5	Test of English as a Foreign Language (TOEFL iTP)*	543-626 Gapirish: 58-63	627-677 Gapirish: 64-68	
6	International Test of English Proficiency (iTEP) Academic-Plus	B2 3.5 — 4.4	C1 4.5 — 5.4	C2 5.5 — 6.0
7	Cambridge Assessment English (FCE)	160+		
8	Cambridge Assessment English (CAE)		180+	
9	Cambridge Assessment English (CPE)			200+
<b>Fransuz tili bo'yicha</b>				
10	Diplôme d'Etudes en Langue Française (DELF)	DELF B2		
11	Diplôme Approfondi de Langue Française (DALF)		DALF C1	DALF C2
12	Test de Connaissance du Français (TCF)	B2	C1	
<b>Nemis tili bo'yicha</b>				
13	Goethe-Zertifikat	Goethe-Zertifikat B2	Goethe-Zertifikat C1	Goethe-Zertifikat C2
14	Deutsches Sprachdiplom (DSD II)	B2	C1	
15	Test Deutsch als Fremdsprache (Test DAF)	TDN 4 (B2.2 - C1.1) TDN 3 (B2.1)	TDN 5 (C1.2)	

<b>Ispan tili bo'yicha</b>				
16	Diplomas de Español como Lengua Extranjera (DELE)	B2	C1	C2
17	Servicio Internacional de Evaluación de la Lengua Española (SIELE)	B2	C1	C2
<b>Italyan tili bo'yicha</b>				
18	Certificatos di Conoscenza della Lingua Italiana (CELI)	CELI 3	CELI 4	CELI 5
19	Certificazione di Italiano come Lingua Straniera (CILS)	CILS Due	CILS Tre	CILS Quattro
<b>Arab tili bo'yicha</b>				
20	Al-Arabiya Test (The Arabic language Proficiency test, E-TOAFL)	B2	C1	C2
21	AT Tanal Al Arabi	B2	C1	C2
<b>Xitoy tili bo'yicha</b>				
22	Hanyu Shuiping Kaoshi (HSK)	HSK4	HSK5	HSK6
<b>Yapon tili bo'yicha</b>				
23	Japanese Language Proficiency Test (JLPT)	N2	N1	
<b>Koreys tili bo'yicha</b>				
24	Test of Proficiency in Korean (TOPIK II)	Level 4 150 — 189	Level 5 190 — 229	Level 6 230 — 300
<b>Turk tili bo'yicha</b>				
25	Türkçe Yeterlik Sınavı (TYS)	B2 55 — 70	C1 71 — 88	C2 89 — 100

\* Izohlar:

1) xalqaro sertifikatlar taqdim etishda hujjatdagi talabgorning ism sharifi lotin harflarida hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjatga muvofiq bo'lishi;

2) magistratura va oliy ta'limdan keyingi ta'lim uchun hujjat topshirishda filologiya yo'nalishi bo'yicha hujjat topshirayotgan talabgorlar aynan o'zlari tanlagan til yo'nalishi bo'yicha til bilish darajasini baholovchi sertifikatni taqdim etishlari;

3) til bilish darajasini baholovchi sertifikatlar til bilish ko'nikmalarining barcha turlarini (tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va gapirish) o'z ichiga olishi lozim.